

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANGAN HOLDA DARSLARNI SAMARALI TASHKILLASHTIRISH

Ilg'or Asrorov

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

i.asrorov@iiu.uz

ANNOTATSIYA

Raqamli texnologiyalar asrida ingliz tilini o'qitish jarayoni tubdan yangilanib, oliy ta'lim tizimida samarali ta'lim muhitini yaratish imkoniyatlari kengaydi. Mazkur maqolada ingliz tili darslarini tashkil etishda onlayn ta'lim platformalari, interaktiv vositalar, multimedia resurslar, mobil ilovalar va sun'iy intellekt asosidagi texnologiyalardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari raqamli vositalar ta'lim jarayonining interaktivligi, moslashuvchanligi va shaxsiylashtirilishini ta'minlab, talabalarning motivatsiyasi va mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *raqamli texnologiyalar, ingliz tilini o'qitish, oliy ta'lim, interaktiv ta'lim, mobil ilovalar, sun'iy intellekt, talaba markazli yondashuv, raqamli savodxonlik.*

ABSTRACT

In the age of digital technologies, the process of teaching English has been radically updated, and the possibilities of creating an effective learning environment in the higher education system have expanded. This article analyzes the pedagogical possibilities of using online learning platforms, interactive tools, multimedia resources, mobile applications and artificial intelligence-based technologies in organizing English lessons. The results of the study show that digital tools provide interactivity, flexibility and personalization of the educational process, and serve to develop students' motivation and independent learning skills.

Keywords: *digital technologies, English language teaching, higher education, interactive learning, mobile applications, artificial intelligence, student-centered approach, digital literacy*

KIRISH

XXI asr – bu raqamli texnologiyalar asri. Raqamli texnologiyalarning ta'limga kirib kelishi barcha fanlar qatori, chet tillari, xususan, ingliz tilini o'qitish tizimini ham tubdan o'zgartirdi. Raqamli texnologiyalar – bu ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilar o'rtasida axborot almashinuvini tezlashtiruvchi, o'qitish jarayonini vizual va interaktiv usullarda tashkil qilishga yordam beruvchi vositalar majmuasidir. Ular

orasida kompyuter dasturlari, internet resurslari, virtual platformalar, sun'iy intellekt asosidagi ilovalar, mobil qurilmalar va boshqa vositalar mavjud[1].

Raqamli texnologiyalar ta'limda quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- axborotni uzatish va saqlash;
- ta'lim resurslarini yaratish va ulardan foydalanish;
- masofaviy va mustaqil ta'limni tashkil qilish;
- talabaning individual xususiyatlariga mos o'quv materiallarini tanlash.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yuqorida keltirilgan vositalarning ta'lim jarayoniga tatbiq etilishi o'qitish samaradorligini oshirishga, ta'limning sifatini yaxshilashga, talabalar faolligini kuchaytirishga xizmat qiladi[2].

Ingliz tilini o'qitishda raqamli texnologiyalarning turli ko'rinishlari mavjud bo'lib, ularni quyidagi toifalarga ajratish mumkin:

1. Onlayn ta'lim platformalari: Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams, Edmodo kabi tizimlar raqamli dars muhitini yaratishda eng ommabop vositalardan hisoblanadi. Bu platformalar quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- dars mavzularini joylashtirish;
- test va topshiriqlarni tayyorlash;
- baholash jarayonini yuritish;
- fayllarni yuklash va muhokama qilish;
- talabalar bilan onlayn muloqot qilish.

Masalan, Google Classroom orqali o'qituvchi mavzu bo'yicha videodars, matnli material va testni bir vaqtda yuklay oladi. Talabalar esa topshiriqlarni o'z vaqtida topshiradi, o'qituvchi esa avtomatik baholash funksiyasi orqali samarali nazoratni amalga oshiradi[3].

Moodle esa ko'proq universitetlarda qo'llaniladi va o'qituvchi uchun ko'p funksiyali modullar, kurs dizayni va individual statistika imkoniyatlarini taqdim etadi.

2. Interaktiv vositalar

Kahoot, Quizlet, Mentimeter, Socrative kabi vositalar ingliz tili darslarida interaktiv muhit yaratishda qo'l keladi. Ularning asosiy ustunliklari:

- real vaqt rejimida testlar o'tkazish;
- o'quvchilar ishtirokini faollashtirish;
- darsni o'yin (gamifikatsiya) elementlari bilan boyitish;
- so'z boyligini mustahkamlash va takrorlash.

Quizlet orqali o'qituvchi yangi so'zlar ro'yxatini yaratib, talabalar uchun "flashcard", "learn", "spell", "match", "test" modullarini yo'lga qo'yishi mumkin. Bu talabalar uchun interaktiv mustahkamlashni ta'minlaydi.

Kahoot esa savol-javob formatida o‘yin uslubidagi testlar tuzish imkonini beradi. Bu usul ayniqsa dars boshida “warming-up” yoki dars so‘ngida “review” sifatida juda samarali[4].

3. Video va audio resurslar

YouTube, BBC Learning English, TED Talks kabi media platformalar ingliz tilini o‘rganishda eshitish, ko‘rish va tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Ular quyidagi maqsadlarga xizmat qiladi:

- real nutq namunalarini tinglash;
- talaffuz va intonatsiyani o‘rganish;
- zamonaviy leksikani o‘zlashtirish;
- madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish.

Masalan, BBC Learning English sayti orqali ingliz tilining turli darajadagi tinglab tushunish materiallari, fonetika mashqlari, grammatika darslari va interaktiv mashg‘ulotlar taklif etiladi. Bu platforma o‘quvchilar uchun bepul va doimiy yangilanib boradi[5].

TED Talks esa talabalarning nutq madaniyati, notiqlik va tushunish ko‘nikmalarini oshirishga xizmat qiladi. Nutq tezligi, mavzularning murakkabligi va professional leksika talabalarning yuqori darajadagi til bilimlarini shakllantiradi.

4. Mobil ilovalar

Duolingo, Memrise, HelloTalk – bu mobil qurilmalarda ishlaydigan ilovalar bo‘lib, mustaqil va kundalik mashg‘ulotlar uchun qulay vositalar hisoblanadi. Ularning afzalliklari:

- doimiy takrorlash va bosqichma-bosqich o‘rganish imkoniyati;
- interaktiv muhitda til o‘rganish;
- foydalanuvchi motivatsiyasini oshiruvchi mukofot va reyting tizimi.

Duolingo – gamifikatsiya uslubida ishlovchi platforma bo‘lib, foydalanuvchiga har kuni oz-ozdan til o‘rgatadi: yangi so‘zlar, iboralar, talaffuz va tarjima mashqlari.

Memrise esa ingliz tili leksikasini vizual eslatmalar va videolar orqali o‘rgatadi. Har bir so‘zni ingliz tilida so‘zlaydigan odamdan tinglash imkoniyati mavjud.

HelloTalk esa til o‘rganayotganlarni ona tilida so‘zlashuvchilar bilan bog‘laydi – foydalanuvchi ingliz tilida yozadi yoki gapiradi, o‘zbek tilida so‘zlashuvchi esa unga yordam beradi. Bu muloqot orqali yozma va og‘zaki til rivojlanadi[6].

5. Sun‘iy intellekt (AI) va chatbotlar

ChatGPT, Replika, Elsa Speak kabi AI asosidagi vositalar ingliz tilidagi muloqotni sun‘iy muhitda mashq qilish, tushunish va tahlil qilishga yordam beradi. Bu vositalarning o‘ziga xosligi:

- real muloqotga yaqin sharoit yaratish;

- soʻz va gaplar tuzilishini avtomatik tekshirish;
- talaffuz va yozuvdagi xatolarni tuzatish.

ChatGPT orqali talaba ingliz tilida insho yozish, tarjima qilish, savollar berish yoki suhbat qilish imkoniyatiga ega boʻladi. Bu vosita oʻqituvchining virtual yordamchisiga aylanadi.

Elsa Speak esa talaffuzni yaxshilash boʻyicha ixtisoslashgan. Talaba inglizcha gaplarni aytadi, tizim esa uning talaffuzini tahlil qilib, tuzatishlar beradi.

Replika chatboti ingliz tilida sunʼiy doʻst bilan muloqot qilishga imkon beradi – talaba doimiy ingliz tilida suhbatlashadi, bu esa erkin muloqot koʻnikmalarini mustahkamlaydi[7].

6. Nearpod — bu interaktiv taqdimotlar, testlar, viktorinalar, audio va video mashqlarni bitta platformada birlashtiruvchi vosita boʻlib, u ayniqsa ingliz tili darslarini jonlantirishda samarali.

Asosiy funksiyalari:

- Real vaqt rejimidagi darslar (live sessions)
- Talabalarni interaktiv savol-javoblar orqali jalb etish
- Ichki video va slayd tahriri
- Soʻz boyligini mustahkamlovchi oʻyinlar

Ingliz tili darslarida: oʻqituvchi grammatika mavzusini tushuntiruvchi taqdimot tayyorlaydi, har bir qismidan keyin savol-javob, mini-test yoki videomashqlar joylashtiradi. Talaba har bir bosqichda faol ishtirok etadi va javoblari real vaqtda baholanadi[8].

7. Canva for Education – bu ingliz tili oʻqituvchilari va talabalariga vizual materiallar tayyorlash, dars dizaynini boyitish imkonini beruvchi bepul dizayn platformasi. Asosiy funksiyalari:

- Posterlar, infografikalar, fleshkartalar yaratish
- Video slaydlar va topshiriqlar tayyorlash
- Jamoviy dizaynlar ustida ishlash
- Oʻqituvchilar uchun maxsus shablonlar

Darsda qoʻllanilishi: talabalar yangi soʻzlar uchun “flashcard”lar yaratadi, loyiha ishlari uchun infografikalar tayyorlaydi yoki mavzuga oid prezentatsiyalarni estetik tarzda taqdim qiladi. Bu nafaqat til koʻnikmalarini, balki kreativlikni ham rivojlantiradi[9].

8. Mentimeter – bu soʻrovnoma, viktorina, reyting va “open-ended” savollar asosida talabalarni interaktiv tarzda jalb etuvchi vosita. Asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

- Real vaqtda soʻrovlar oʻtkazish

- Talabalarning fikrlarini vizual ko‘rinishda aks ettirish
- Ovoz berish, reyting tizimi
- Ekranda bulutli so‘zlar (word cloud) chiqarish

Ingliz tilida: talabalar "What does communication mean to you?" degan savolga kalit so‘zlar bilan javob beradi, va barcha so‘zlar ekranda "word cloud" ko‘rinishida chiqadi. Bu metod semantik tahlil va yangi leksikani muhokama qilish uchun foydali.

9. Voicethread – bu multimodal taqdimotlar platformasi bo‘lib, foydalanuvchilarga slayd, audio, video va matnli sharhlar orqali muloqot qilish imkonini beradi.

Vaicethreadning asosiy funksiyalari:

- Audio va video izohlar bilan taqdimotlar tayyorlash
- Talabalar o‘z ovozlari bilan fikr bildirishi
- Interaktiv muhokama muhiti yaratish

Ingliz tilida: talabalar mavzuga oid slaydlar tayyorlab, har bir slaydga ovozli sharhlar beradi. Boshqalar esa o‘z navbatida audio yoki yozma shaklda fikr bildiradi. Bu yozma va og‘zaki ko‘nikmalarni bir vaqtda rivojlantiradi.

10. Loom — bu ekran yozib olish (screencasting) vositasi bo‘lib, o‘qituvchi dars jarayonini yozib, izoh berishi va talabalar bilan baham ko‘rishi mumkin. Asosiy funksiyalari:

- Ekran va yuzni bir vaqtda yozish
- Qisqa dars videolari yaratish
- Feedback (izoh) berish vositasi sifatida foydalanish

Darsda qo‘llanilishi: o‘qituvchi grammatikani tushuntiruvchi qisqa video tayyorlaydi. Talabalar esa topshiriqlarni bajarish davomida o‘z ekrani va ovozini yozib, topshiriq bajarilganini ko‘rsatadi. Bu o‘zlashtirishni nazorat qilishni yengillashtiradi[10].

11. Trello – bu loyiha va vazifalarni boshqarish uchun ishlatiladigan vosita bo‘lib, til o‘rganishdagi mustaqil ishlash va guruh loyihalarini samarali tashkil qilish imkonini beradi. Trelloning asosiy funksiyalari:

- Vazifalarni taxtachalar (board) va kartochkalar sifatida tashkil qilish
- Ish rejasi, belgilangan muddatlar
- Guruhli ishlarda roli aniq bo‘lgan taqsimot

Darsda qo‘llanilishi: talabalar “Film Review” loyihasi ustida ishlayotgan bo‘lsa, Trello taxtasida “Research”, “Writing”, “Proofreading” bosqichlari ochiladi va har bir talaba o‘z roliga mos vazifani bajaradi. Bu metod tanqidiy fikrlash va hamkorlikni rivojlantiradi.

Wakelet – bu raqamli resurslar, linklar, videolar, maqolalar va topshiriqlarni bir joyda to‘plab, tartibga solishga imkon beruvchi platformadir. Asosiy funksiyalari:

- Materiallarni vizual ravishda saqlash va baham ko‘rish
- “Digital portfolio” sifatida foydalanish
- Loyihalarni bir joyda saqlash va muhokama qilish

Ingliz tilida: o‘qituvchi “Present Perfect Tense” mavzusiga oid videolar, maqolalar, test linklarini bir joyga to‘playdi va talabalar bilan baham ko‘radi. Talabalar o‘z navbatida feedback yozadi yoki o‘z resurslarini qo‘shadi. Bu vositalar orqali darslar ko‘proq multimediamiy, interaktiv, individual yondashuvga asoslangan va talaba markazli tus oladi[11].

Raqamli texnologiyalar yordamida tashkil etilgan darslar quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi:

- Moslashuvchanlik: Talabalar o‘zlariga qulay vaqtda, istalgan joyda o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladi.
- Shaxsiylashtirish: Har bir talabaning darajasiga mos topshiriqlar va materiallar tanlanadi.
- Interaktivlik: Talabalar dars jarayonida faol ishtirok etadi, real vaqtda fikr bildiradi.
- Vizual ta’sir: Video, animatsiya, grafiklar orqali mavzuni yaxshiroq tushunish imkoni paydo bo‘ladi.
- Tezkor aloqa: O‘qituvchi bilan real vaqt rejimida yoki onlayn shaklda muloqot qilish mumkin.

Masalan, biror grammatik mavzuni o‘rganishda oddiy matndan ko‘ra vizual animatsiyalar bilan tushuntirilgan dars materiallari yaxshiroq esda qoladi. Yoki og‘zaki nutqni rivojlantirish uchun mobil ilovalar orqali talaffuzni tekshiruvchi mashqlar bajarilishi mumkin.

An’anaviy ta’limda o‘qituvchi asosiy bilim manbai sifatida maydonga chiqsa, raqamli ta’limda o‘qituvchining roli yo‘lboshchi, fasilitator, mentor sifatida namoyon bo‘ladi. Talaba esa passiv bilim oluvchi emas, balki bilimni o‘zlashtiruvchi va yaratuvchi faol ishtirokchiga aylanadi[12].

Raqamli texnologiyalar:

- o‘qituvchini darslarni ilg‘or pedagogik yondashuvlar asosida tashkil qilishga undaydi;
- talabani tanqidiy fikrlash, mustaqil izlanish, ijodiy yondashuvga rag‘batlantiradi;
- ta’limda o‘z-o‘zini baholash va refleksiya imkoniyatlarini kengaytiradi.

Bunday sharoitda o'qituvchining raqamli savodxonligi yuqori bo'lishi, shuningdek, talabaning raqamli muhitda o'zini boshqara olish ko'nikmalari rivojlangan bo'lishi zarur.

Quyida ingliz tili darslarini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etishga doir bir nechta amaliy misollar keltiriladi:

Misol 1: Interaktiv grammatika darsi (Zoom + Kahoot)

Dars mavzusi: Present Perfect vs. Past Simple

1. Zoom orqali mavzu tushuntiriladi, misollar keltiriladi.
2. So'ngra talabalar Kahoot orqali 10 ta interaktiv testga javob beradi.
3. Natijalar real vaqt rejimida ko'rsatiladi, muhokama qilinadi.

Misol 2: O'qish va yozish ko'nikmalari uchun Google Classroom

1. Mavzu bo'yicha maqola yuklanadi.
2. Talabalar maqolani o'qib, savollarga yozma javob beradi.
3. O'qituvchi har bir ishingizga izoh beradi.

Misol 3: Leksikani boyitish uchun mobil ilovalar (Quizlet)

1. Talabalarga yangi so'zlar ro'yxati Quizlet orqali beriladi.
2. Ilova yordamida "flashcard", "matching", "spell" kabi usullar bilan o'rganish vazifasi topshiriladi.
3. Keyingi darsda so'zlar bilan gap tuzish va og'zaki mashqlar o'tkaziladi.

Bu kabi darslar nafaqat talabalarning bilimini oshiradi, balki ularni darsga jalb qilish, faol ishtirok etishga undaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar yordamida ingliz tilini o'qitish bugungi kunda zamonaviy ta'limning ajralmas qismiga aylangan. Ular ta'lim jarayonini yangilash, talabaning ehtiyojlariga moslashtirish va ta'lim samaradorligini oshirishda katta imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, bu jarayonda o'qituvchi va talabalar raqamli savodxonlikni rivojlantirishlari, yangi texnologiyalarga ochiq bo'lishlari talab etiladi.

Kelajakda sun'iy intellekt, AR/VR, gamifikatsiya kabi texnologiyalar yanada keng qo'llanilishi va ta'limda innovatsion yondashuvlar kuchayishi kutilmoqda. Shu bois, ingliz tilini o'qitishda raqamli vositalardan samarali foydalanish – bu nafaqat zamon talabi, balki raqobatbardosh ta'lim tizimini yaratish yo'lidagi muhim qadamlaridan biridir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Azimova, U.O. (2023). *Xorijiy tillarni o'qitishda raqamli texnologiyalarning o'rni*. CSPU Conference.

2. Zoirova, A.I. (2024). *Xorijiy tillarni o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning afzallik tomonlari*. Inter Education & Global Study, 10(1), 426-430.
3. Asrorov, I., & Abdullayeva, G. (2020). Measures to find out learning disabilities and improve the condition for Id children. In *инновационные подходы в современной науке* (pp. 13-17).
4. Fayzi, A. I. (2022). Teaching English to students with visual impairments: problems and solutions. *Thematics Journal of English Language Teaching*, 6(1).
5. Asrorov, I. (2024). SOCIAL DIMENSIONS OF STANDARDIZED ASSESSMENT IN LANGUAGE TEACHING IN UZBEKISTAN. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(9), 84-90.
6. Asrorov, I. (2021). Tips for the Teachers Working with Blind Students in A Language Classroom. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(05), 474-476.
7. Fayzi ogli, I. (2021, May). PROBLEMS AND SOLUTIONS OF TEACHING CLASSES WITH BLIND STUDENTS. In *Archive of Conferences* (Vol. 26, No. 1, pp. 13-15).
8. ogli Asrorov, I. F. (2020). The Content Of Teaching Foreign Languages. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(11), 322-326.
9. Nazarov, S., & Asrorov, I. (2025). BENEFITS OF ONLINE EDUCATION TO THE INDUSTRY OF UZBEKISTAN. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 38(4), 102-106.
10. Asrorov, I. (2025). THE ROLE OF ANTHROPOCENTRIC TEACHING IN ENHANCING STUDENT AND TEACHER MOTIVATION AT THE UNIVERSITY LEVEL. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(5), 638-643.
11. Asrorov, I. O. (2025). OLIY TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING O 'RNI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(5), 161-166.
12. Asrorov, I. (2024). POWER OF TESTS: STANDARDIZED TESTS AND THEIR IMPACT ON EDUCATION IN UZBEKISTAN. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(10), 18-24.
13. Asrorov, I. O. F. O. G. (2022). CHET TILINI O 'RGANISHDA SHAXS INDIVIDUAL XUSUSIYATLARINING O 'RNI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(12), 1132-1139.